

## DAVLAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING AHAMIYATI

**Hamroyev Anvar Abdikarimovich**

mustaqil izlanuvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14720486>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda ijtimoiy sohalarga berilayotgan e'tibor va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Yangi O'zbekiston sharoitida ayollar, yoshlar, qariyalar, nogironligi bor shaxslar va ijtimoiy yordamga muhtoj aholiga ko'rsatilayotgan ko'mak, ularning hayot darajasini yaxshilashga qanday hissa qo'shayotgani haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy himoya, professional ijtimoiy xizmat, ijtimoiy tibbiy xizmat, bandlik, ijtimoiy himoya markazlari, ajratilayotgan sarmoyalar, aholi turmush darajasi, ijtimoiy xizmat darchalari, Mehr daftari, Yoshlar daftari, Ayollar daftari.

### THE IMPORTANCE OF SOCIAL SUPPORT IN ENSURING STATE SECURITY

**Abstract.** This article highlights the attention given to social spheres and the measures being implemented in our country. It discusses the assistance provided to women, youth, the elderly, persons with disabilities, and the population in need of social support in the context of New Uzbekistan, and how this assistance contributes to improving their living standards.

**Keywords:** social protection, professional social services, social medical services, employment, social protection centers, allocated investments, population living standards, social service windows, Mehr notebook, Youth notebook, Women's notebook.

### ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОДДЕРЖКИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ГОСУДАРСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье освещается внимание, уделяемое в нашей стране социальным сферам, и реализуемые меры. Рассматривается, как оказываемая помощь женщинам, молодежи, пожилым людям, лицам с инвалидностью и нуждающимся в социальной поддержке в условиях Нового Узбекистана способствует улучшению уровня их жизни.

**Ключевые слова:** социальная защита, профессиональная социальная служба, социальная медицинская служба, занятость, центры социальной защиты, выделяемые инвестиции, уровень жизни населения, окна социальных услуг, тетрадь "Мехр," тетрадь молодежи, тетрадь женщин.

---

“Ijtimoiy davlat – eng avvalo, jamiyatda ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillari hukm suradigan, inson kapitalini rivojlantirish va uning imkoniyatlarini yuzaga

chiqarish uchun sharoitlar yaratilgan, fuqarolar uchun yuqori hayot va turmush darajasi ta'minlanadigan davlatdir".

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**Sh.M.Mirziyoyev**

"Ijtimoiy" atamasi keng ma'noda jamiyat va jamoat bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni o'z ichiga oladi. Bu so'z odamlar hayoti va jamiyat faoliyatining turli jihatlarini qamrab oladi.

"Himoya" so'zining kelib chiqishi arab tiliga borib taqaladi va u "qo'llab-quvvatlash", "himoya qilish", "to'siq yaratish" kabi ma'nolarni anglatadi. Ushbu atama turli sohalarida foydalanilib, bir necha xil mazmunda izohlanadi. Shu asosda "ijtimoiy soha" jamiyatning muhim ehtiyoj va manfaatlarini qondiruvchi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Mazkur sohaning asosiy elementi bo'lgan "ijtimoiy himoya" esa jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish vazifasini bajaradi. Bu tushuncha davlat yoki jamoatchilik tomonidan taqdim etiladigan yordam va qo'llab-quvvatlash tizimlarini ham qamrab olib, insonlarning turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi<sup>1</sup>.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sohaga katta e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy sohani rivojlantirish – bu jamiyat farovonligini oshirish maqsadida barcha aholi qatlamlari uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish va ularni kelajakka umid ruhida qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Ijtimoiy ish esa shaxslar, guruhlar va jamiyatga qulay yashash va rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilgan kasbiy faoliyat hisoblanadi. Shu sababli bu faoliyat bevosita insonlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish sifatida qabul qilinadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham ijtimoiy sohaga alohida e'tibor berilib, davlatning ijtimoiy yo'nalishdagi vazifalari aniq belgilab berilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston – boshqaruv shakli respublika bo'lgan mustaqil, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani qayd etilgan<sup>2</sup>.

Konstitutsiyamizda mehnatga layoqatsiz, yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar va ijtimoiy yordamga muhtoj boshqa aholi qatlamlarining huquqlari davlat himoyasida bo'lishi mustahkamlangan. Ushbu qat'iy qoida ijtimoiy sohada yagona yondashuv asosida islohotlar amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

2023-yil 1-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-sonli Farmon imzolandi. Ushbu Farmon fuqarolarning ijtimoiy himoyaga doir huquq va manfaatlarini kafolatlash, shuningdek, aholiga taqdim etiladigan

<sup>1</sup> Xusanova X. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish dinamikasi//monografiya 2024.–B.44.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 128 b.

ijtimoiy xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Mazkur hujjat asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Ushbu agentlik ijtimoiy himoya va xizmatlar ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etishda vakolatli davlat organi hisoblanadi. Agentlik o'z faoliyatini boshqa davlat organlari va tashkilotlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi<sup>3</sup>.

Agentlik zimmasiga og'ir sharoitlarda yashayotgan aholining ijtimoiy xizmatlar va yordamdan samarali foydalanishini ta'minlash, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar sonini kamaytirish, ularni jamiyat hayotiga moslashishiga ko'maklashish hamda ularning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlash kabi vazifalar yuklatilgan<sup>4</sup>.

Jamiyatning ijtimoiy hayot sohasi – bu jamiyat tuzilmasining muhim bir qismi bo'lib, unda odamlar tarixiy va ijtimoiy guruhlariga ajralgan holda o'zaro munosabatga kirishadilar. Ushbu soha ijtimoiy sinflar, qatlamlar, millatlar, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni, shuningdek, mehnat sharoitlari, sog'liqni saqlash va dam olish kabi omillarni qamrab oladi. Ijtimoiy hayot sohasi nisbatan mustaqil tizim bo'lib, odamlar unda jamiyatdagi o'z ijtimoiy mavqei va tenglik yoki tengsizlik tamoyillari asosida aloqalar o'rnatadilar.

Jamiyatning boshqa jabhalari qatorida ijtimoiy hayot sohasi alohida ahamiyatga ega.

Chunki bu sohada turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida tenglik va tengsizlik mezonlari amaliyotda namoyon bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy adolat tamoyillarining hayotga tatbiq etilish darajasini ko'rsatadi. Shu sababli, ijtimoiy hayot sohasini rivojlantirish va takomillashtirish jamiyatimizni jiddiy o'zgarishlarga olib boruvchi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib etish hamda tibbiyot muassasalarini zarur jihozlar bilan ta'minlash mamlakat sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish yo'lida muhim qadamlar sifatida belgilangan.

Xususan, tibbiyotning birlamchi bo'g'inini rivojlantirish va shoshilinch tibbiy yordam tizimini takomillashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda har bir fuqaro uchun sifatli va malakali tibbiy xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish maqsadida amalga oshirilgan keng ko'lamli tadbirlar bir qator yutuqlarga olib keldi. Bu yutuqlardan eng asosiysi – aholining o'rtacha umr davomiyligining so'nggi 20 yil ichida 3,5 yilga oshib, 74,7 yoshga yetganidir. 2030-yilga kelib, bu ko'rsatkichni 78 yoshga yetkazish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023-yildagi PF-82-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6480342>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi rasmiy sayti <https://ihma.uz>

Oxirgi 7 yil ichida sogʻliqni saqlash tizimiga ajratilayotgan sarmoyalar hajmi 6 barobar oshib, 5,9 trillion soʻmdan 33,5 trillion soʻmgacha yetkazilgan<sup>5</sup>.

Aholining turmush darajasini oshirish maqsadida bandlikni koʻpaytirish, yangi ish oʻrinlari yaratish va ishsizlikni kamaytirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yoshlar, ayniqsa oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan taʼminlash hamda mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilanmoqda.

Mehnatga layoqatli aholining bandligini taʼminlash uchun ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, qayta oʻqitish va malakasini yuksaltirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

2023-yil yakuni boʻyicha Oʻzbekistonda band aholi soni 312 ming kishiga yoki oʻtgan yilga nisbatan 2,3 foizga oshdi. Oʻtgan yil davomida aholi bandligini taʼminlash maqsadida oilaviy tadbirkorlik uchun 15 trillion soʻm miqdorida imtiyozli kreditlar, 37 turdagi subsidiyalar ajratildi, dehqonchilik uchun esa 200 ming gektar yer taqdim etildi.

Aholining turmush darajasini oʻrganish uchun har yili davlat statistika organlari tomonidan uy xoʻjaliklari kuzatuvlari olib boriladi. Kambagʻallikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash yoʻlida “Inson” ijtimoiy himoya markazlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu markazlar yordamga muhtoj fuqarolarni qoʻllab-quvvatlashda muhim rol oʻynaydi.

Ijtimoiy xizmatlar markazi xodimlari ehtiyojmand aholining holatini oʻrganib, ularga shu joyning oʻzida ijtimoiy yordam tizimiga kirish imkoniyatini taqdim etadi va ularni tegishli tashkilotlarga yoʻnaltiradi. Endi esa yolgʻiz yashovchi, parvarishga muhtoj keksalar va nogironligi boʻlgan shaxslarni roʻyxatga olish yoki chiqarish jarayonlari ushbu markaz tomonidan amalga oshiriladi. Sohaga oid murojaatlarni onlayn qabul qilish jarayonni tezlashtirishga xizmat qilmoqda.

2022-yilda 9,5 ming mahallada hokim yordamchilari, yoshlar yetakchilari va xotin-qizlar faollari ish boshladi. Hokim yordamchilari minglab insonlarni bandlik bilan taʼminlashga koʻmaklashdi. Agar 2017-yilda 500 ming nafar kam taʼminlangan oilaga ijtimoiy yordam koʻrsatilgan boʻlsa, bugungi kunga kelib bu koʻrsatkich 2,5 milliondan oshgan. Ajratilayotgan mablagʻlar hajmi esa 7 baravarga oshib, yiliga 13 trillion soʻmga yetdi<sup>6</sup>.

Aytib oʻtish joizki, ilgari ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan baʼzi fuqarolar bir vaqtning oʻzida bir nechta tashkilotlardan yordam soʻrab murojaat qilish imkoniga ega edi. Bu esa haqiqatan yordamga muhtoj insonlarning eʼtibordan chetda qolishiga sabab boʻlgan. Ushbu muammolarni hal etish maqsadida ijtimoiy xizmatlarni boshqarish uchun “Yagona milliy ijtimoiy himoya” elektron tizimi joriy etildi.

Mazkur tizim orqali fuqarolarning arizalari bevosita onlayn tarzda qabul qilinadi, shuningdek, “Mehr daftari”, “Saxovat va koʻmak”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” kabi

<sup>5</sup> Hozirgi zamon va Yangi Oʻzbekiston / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2024. – 181 b.

<sup>6</sup> Hozirgi zamon va Yangi Oʻzbekiston / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “Oʻzbekiston” nashriyoti, 2024. – 185 b.

axborot bazalari yagona platforma asosida birlashtiriladi. Shu bilan birga, turli vazirlik va idoralar o'rtasida 35 turdagi elektron ma'lumotlarni almashish imkoniyati yaratilgan bo'lib, bu takroriy ma'lumotlar va noto'g'ri tayinlanish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Fuqarolarning yordam olgan yoki olmaganligi tizimda elektron shaklda aks ettiriladi, bu esa boqimandalik holatlarining oldini olishga yordam bermoqda. Ushbu tizim avtomatik ravishda, inson omilisiz ishlaydi va hujjat aylanishi to'liq elektron shaklda amalga oshiriladi<sup>7</sup>.

Ijtimoiy yordam tizimida fuqarolarni ro'yxatdan chiqarishning yangi tartiblari amaliyotga joriy etildi. Bugungi kunda ijtimoiy yordam oluvchilar jamiyatga to'liq moslashib, mustaqil hayot yo'lini topguniga qadar ularning holati doimiy nazorat qilinmoqda. Ushbu yondashuv yordamning haqiqatda muhtoj insonlarga yetib borishini va ularning turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilishini ta'minlashni maqsad qilgan.

2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlarida maxsus "Ijtimoiy xizmat darchalari" tashkil etildi. Ushbu darchalar yordamida fuqarolar nogironlikni aniqlash, protez va ortopedik vositalar bilan ta'minlash, sanatoriylarga yo'llanma olish, psixologik yordamdan foydalanish va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash kabi xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. Bu tizim yordamga muhtoj insonlarning zarur xizmatlarni olish jarayonini ancha oson va qulay qildi.

Mamlakat rahbari hozirda davlat rivojlanishi va jamiyat a'zolarining hayotini yaxshilash yo'lida faol ish olib bormoqda. Ushbu harakatlarning asosiy maqsadi – aholining turmush farovonligini oshirish va yoshlarni har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar doirasida "Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirish" deb nomlangan to'rtinchi yo'nalish alohida ahamiyatga ega. U aholining bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, ularning sog'lig'ini saqlash, yo'l-transport va muhandislik kommunikatsiyalarini takomillashtirish, shuningdek, ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish kabi masalalarga qaratilgan<sup>8</sup>.

Xulosa qilib aytganda, aholiga ko'rsatilayotgan ijtimoiy yordam sifatini yaxshilash va xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini kuchaytirish davlatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Mamlakat iqtisodiyotini transformatsiya qilish orqali aholi bandligini ta'minlash nafaqat ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirishga, balki nogironligi bo'lgan shaxslar va umumiy aholi uchun malaka oshirish hamda kasbiy tayyorgarlikni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam beradi. Bu esa ijtimoiy himoya darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023-yildagi PF-82-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6480342>

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan barcha chora-tadbirlar ijtimoiy yordamga muhtoj aholi qatlamlarini himoya qilish, jamiyatda farovonlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va aholining turli qatlamlari o'rtasidagi keskin farqlarni kamaytirishga qaratilgan.

## REFERENCES

1. Xusanova X. O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimining rivojlanish dinamikasi//monografiya 2024.–B.44.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 128 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.06.2023-yildagi PF-82-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-6480342>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>